

TURIZM INFRATUZILMASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MAHALLIY BOSHQARUV QARORLARINING ROLI VA SAMARADORLIGI

Narzullaev Nozimjon Sobirjonovich

I.f.n. Dotsent

Namangan davlat texnika universiteti

Menejment kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Maqolada turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda mahalliy boshqaruv organlarining strategik qarorlari va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Ekoturizm, barqaror rivojlanish, va infratuzilma rejalashtirishda hukumat qarorlarining o'rnini Namangan viloyati misolida ko'rib chiqilgan. Muammoning yechimi bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy boshqaruv, turizm infratuzilmasi, ekologik xavfsizlik, ekoturizm, barqaror rivojlanish, qaror qabul qilish, Namangan, atrof-muhit, strategik boshqaruv, sayyohlik, davlat siyosati.

Turizm sohasi nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki madaniy almashinuv va xalqaro aloqalarni rivojlantiruvchi omildir. Biroq turizmning kengayishi bilan birga ekologik muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Shuning uchun, turizm infratuzilmasini barpo etishda ekologik xavfsizlik tamoyillariga amal qilish dolzarb masalalardan biridir. Bu borada mahalliy boshqaruv organlarining qarorlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan turizmni strategik rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq infratuzilma kengayishi, sayyohlar oqimining ortishi ekologik bosimni kuchaytirmoqda. Aynan shunday sharoitda mahalliy hokimliklar tomonidan ekologik xavfsizlikni hisobga olgan holda qabul qilinayotgan qarorlar turizmning uzoq muddatli, barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu mavzu global iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslardan samarali foydalanish zaruriyati fonida ayniqsa dolzarbdir.

Hususan, Namangan viloyatining Pop, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlarining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni yanada rivojlantirish, zamonaviy turizm infratuzilmasi, yangi dam olish maskanlarini barpo etish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, turizm sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish hamda yangi ish o'rinlarini tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.06.2022 yildagi "2022 — 2024-yillarda Namangan viloyati Pop, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlarining turizm

salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-318-sonli qarori[1, p. 1] qabul qilingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.04.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-211-sonli Qarori [2, p. 18] doirasida 2022 — 2026-yillarda Namangan viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari tasdiqlandi.

1-jadval

Namangan viloyatida turizm obyektlari va dam olish joylarini tashkil qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish

	Shahar va tumanlar nomi	O'lchov birligi	Yillar kesimida					JAMI
			2022	2023	2024	2025	2026	
1	Namangan viloyati	dona	10	12	8	15	22	67
2	Namangan shahri	dona	5	3	4		4	16
3	Mingbuloq tumani	dona	1	2	1		1	5
4	Namangan tumani	dona		1			1	2
5	Norin tumani	dona	1	1			1	3
6	Pop tumani	dona	2	1		1	4	8
7	To'raqo'rg'on tumani	dona		1		1	1	3
8	Uychi tumani	dona		1		1	1	3
9	Uchqo'rg'on tumani	dona			1	1	1	3
10	Chust tumani	dona				3	3	6
11	Yangiqo'rg'on tumani	dona				5	2	7
12	Kosonsoy tumani	dona	1	2	1		1	5
13	Chortoq tumani	dona			1	3	2	6

Mahalliy boshqaruv organlari turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yetakchi rol o'ynaydi. Ular hududiy rivojlanish dasturlari doirasida yo'llar, mehmonxonalar, axborot markazlari, sanitariya-gigiyena shoxobchalari, ekologik marshrutlar kabi infratuzilmani barpo etishda muhim qarorlar qabul qiladi. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash tizimi, yashil zonalarini kengaytirish, ekoturizmni rivojlantirish kabi masalalar muhim o'rin tutadi.


Bundan tashqari mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan sayyohlar sonini ko'paytirishga aloqador bo'lgan qarorlarni qabul qilinishi hududning iqtisodiy yuksalishiga turtki bo'lib xizmat qiladi.

Namangan turizm boshqarmasining qayd etishicha, 2024 yil 19-21-may kunlari shaharga aynan festivalda qatnashish va tomosha qilish uchun 1 675 009 nafar sayyohlar tashrif buyurgan. Shundan 70 626 nafarini xorijdan kelganlar tashkil etgan [3, p. 1].

Tahliliy ma'lumotlardan ko'rish mumkinki belgilangan rejalarni amalga oshirish imkoniyati yuqori.

Namangan viloyatida so'nggi yillarda qabul qilingan qarorlar asosida ekoturizm obyektlari yaratilmoqda, tog'li hududlarda chiqindi boshqaruvi va suv resurslaridan oqilona foydalanish mexanizmlari joriy etilmoqda. Bu nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlashga, balki sayyohlar sonining ortishiga ham olib kelmoqda.

Mahalliy boshqaruv qarorlarining samaradorligi, shuningdek, jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ekologik me'yorlar va monitoring tizimlariga bog'liq. Hukumat, mahalliy hokimliklar, tadbirkorlar va fuqarolik jamiyati birgalikda ishlagandagina turizm barqaror rivojlanadi.



1-diagramma. Namangan viloyatida ichki va tashqi turistlarning sonini oshirish rejalari

Turizm infratuzilmasi va ekologik xavfsizlik o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan sohalardir. Mahalliy boshqaruv organlarining qarorlari bu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirishda muhim strategik vositadir. Faqatgina iqtisodiy natijalar emas, balki ekologik barqarorlik ham inobatga olingan holda olib borilgan siyosatgina uzoq muddatli muvaffaqiyatni kafolatlaydi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda mahalliy boshqaruv qarorlarining roli beqiyosdir. O'zbekistonning turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarida, xususan Namangan viloyatida so'nggi yillarda qabul

qilinayotgan qarorlar sayyohlik infratuzilmasini kengaytirish bilan birga ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy darajadagi strategik yondashuvlar, ayniqsa ekoturizm yo'nalishlarini rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali salmoqli natijalar bermoqda.

Turizmni barqaror rivojlantirish jarayonida davlat siyosati, mahalliy hokimiyatlar, tadbirkorlik subyektlari va jamoatchilik o'rtasida mustahkam hamkorlik bo'lishi zarur. Mahalliy boshqaruv organlari nafaqat infratuzilma yaratishda, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi normativ-huquqiy bazani shakllantirishda, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishda va muqobil ekologik yechimlarni qo'llashda ham faol ishtirok etishi zarur.

Shunday qilib, iqtisodiy manfaatlar bilan ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash, barqaror va uzoq muddatli turizm siyosatining eng muhim shartlaridan biridir. Mahalliy boshqaruv qarorlarining sifatli, tizimli va strategik asosda qabul qilinishi bu yo'nalishdagi asosiy muvaffaqiyat omili bo'lib qoladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda sohani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida quyidagi takliflarni keltiramiz.

1. Ekologik audit tizimini joriy etish – turizm loyihalarini boshlashdan avval ularning atrof-muhitga ta'siri baholanishi ta'minlash.
2. Mahalliy ekologik kodekslarni ishlab chiqish – har bir hudud uchun individual ekologik me'yorlarni belgilash.
3. Ekoturizmni targ'ib qilish – tabiiy boyliklarga zarar yetkazmaydigan, barqaror turizm shakllarini qo'llab-quvvatlash.
4. Yashil infratuzilma loyihalariga subsidiya ajratish – qayta tiklanadigan energiya, biologik tozalash tizimlari kabi texnologiyalarni rag'batlantirish.
5. Mahalliy aholini jalb qilish – ekologik xavfsizlik bo'yicha targ'ibot va treninglar orqali aholining mas'uliyatini oshirish.
6. Monitoring va hisobot tizimini kuchaytirish – turistik obyektlar faoliyatining ekologik ko'rsatkichlarini doimiy kuzatib borish tizimini yaratish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.06.2022 yildagi "2022 — 2024-yillarda Namangan viloyati Pop, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlarining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-318-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.04.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-211-sonli Qarori.